# RISOLAT TUSHUNCHASI VA UNING TARIXIY, SIYOSIY VA G'OYAVIY ROLI

# КОНЦЕПЦИЯ РИСАЛАТ И ЕЕ ИСТОРИЧЕСКАЯ, ПОЛИТИЧЕСКАЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ

# THE CONCEPT OF RISALAT AND ITS HISTORICAL, POLITICAL AND IDEOLOGICAL ROLE

**Farrukh KUSHBAYEV,**
*INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN*
*PhD student of the ISESCO chair on Islamic studies and learning Islam sivilisation,*
*11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.*
*e-mail: f.qoshboyev@iiua.uz*

**DOI: 10.47980/TLOI/2020/3/9**

**Аннотация:** Maqolada "risolat" tushunchasining lug'aviy jihatdan mazmun-mohiyati ochib berilgan bo'lib, keying o'rinlarda esa mazkur tushunchaning tarixiy jarayon sifatida arab va musulmon xalqlari hayotida tutgan o'rni tahlil qilingan. Xususan, lug'at kitoblarida ushbu so'zning anglatgan ma'nosi va ishlatish o'rinlari hamda islom dinining bosh manbasi bo'lmish Qur'oni karimda uning qo'llanilishi holatlari qiyosiy tarzda o'rganilgan. Qur'on ma'nolarining o'zga tillarga, xususan o'zbek, rus, ingliz tillariga akademmik hamda ana'anaviy tarjima va tafsirlarida risolat so'zi qay tarzda tarjima etilgani ham birma-bir taqqoslash asosida – ilmiy tadqiqotning qiyoslsh uslubidan foydalangan holatda yoritilgan.

Shu bilan bir qatorda, o'rta asrlar Arab jamiyatida yuz bergan risolat odamlarning ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar tarihiy faktlar va Qur'on oyatlari vositasida qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda, boshqa olimlarning ham ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan.

**Tayanch iborlar:** *islom tarixi va madaniyati, payg'ambarlik risolati, Qu'roni karim, arab jamiyati, Makka va Quraysh, butparastlik va tavhid, yakkahudolik tushunchasi, islomda ayol huquqi.*

**Аннотация:** Основная цель статьи - дать более четкое представление о жизни Пророка Мухаммада (мир ему и благословение) и его деятельности по распространению идеи монотеизма на основе аятов Корана. в частности, путем объективного освещения исторической сущности становления средневекового арабского общества в период подъема, чтобы предотвратить появление неправильных представлений об исламе и его пророке в умах современного молодого поколения под влиянием различных фанатичных групп.

В статье сначала разъясняется лексическое значение термина «рисолат (миссия)», а затем анализируется идейное влияние этого понятия как исторического процесса на политическую жизнь арабских народов и на-

родов мира. В частности, словари раскрывают сравнительное значение и уместность применения этого слова, а также его использование в Коране, главном источнике ислама. В академических и традиционных переводах и толкованиях значений Корана на другие языки, в частности узбекский, русский и английский, слово «посланник» также объясняется на основе индивидуальных сравнений - с использованием метода сравнительного анализа. В то же время радикальные изменения, произошедшие в социальной и культурной жизни людей в результате миссии, имевшей место в средневековом арабском обществе, были проанализированы на основе сравнительного метода с помощью исторических фактов и стихов из Корана. В статье также подчеркивается необходимость опираться на объективный подход к исследованиям при изучении истории и культуры ислама. Кроме того в статье также перечислены исследования автора по данной теме, проведенные во время его научных изысканий. В то же время, подробно объясняется с помощью примеров то, насколько аяты, посланные в начале ислама, повлияли на образ жизни людей. А также раскрывается научное и аналитическое изучение отдельного исторического периода ислама - периода жизни Пророка.

В заключительной части статьи делается вывод о значении первоисточников и научного наследия наших ученых на при изучении и освещении исторических фактов.

**Основные фразы:** *исламская история и культура, послание пророчества, Коран, арабское общество, Мекка и курайшиты, идолопоклонство и монотеизм, концепция монотеизма, права женщин в исламе.*

**Abstract:** The main goal of the article is to give a clearer picture of the life of the Prophet Muhammad (peace and blessings be upon him) and his activities to spread the idea of monotheism based on the verses of the Koran. In particular, by objectively illuminating the historical essence of the formation of medieval Arab society during the period of rising, to prevent the emergence of misconceptions about Islam and its prophet in the minds of the modern young generation.

The article first explains the lexical meaning of the term “risolat (mission)”, and then analyzes the ideological influence of this concept as a historical process on the political life of the Arab peoples and peoples of the world. In particular, dictionaries reveal the comparative meaning and relevance of this word, as well as its use in the Quran, the main source of Islam. In academic and traditional translations and interpretations of the meanings of the Koran into other languages, in particular Uzbek, Russian and Eng., the word “messenger” is also explained on the basis of individual comparisons - using the method of comparative analysis. At the same time, the radical changes that took place in the social and cultural life of people as a result of the mission that took place in medieval Arab society were analyzed based on a comparative method using historical facts and verses from the Koran. The article also emphasizes the need to rely on an objective approach to research in the study of the history and culture of Islam. Also, the article lists the author’s research on this topic, carried out during his scientific research. At the same time, it explains in detail with the help of examples of how the verses sent at the beginning of Islam influenced the way of life of people. It also reveals the scientific and analytical study of a separate historical period of Islam - the period of the life of the Prophet.

In the final part of the article, a conclusion is made about the importance of the primary sources and the scientific heritage of our scientists in the study and coverage of historical facts.

**Key words:** *Islamic history and culture, the message of prophecy, the Quran, Arab society, Mecca and Quraysh, idolatry and monotheism, the concept of monotheism, women’s rights in Islam.*

## KIRISH

Jahon integratsiyasining hozirgi bosqichida, oddiy fuqarolar tomonidan ham raqamli texnologiyali qurilmalar xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatining kengaygayishi, barcha sohalar kabi islom tarixi bo’yicha ham yangi tadqiqot mavzusini yuzaga keltiradi. Islom tarixi va madaniyatini chuqur o’rganish islom ta’limotini yanada teranroq anglashga va atrofimizda sodir bo’layotgan voqyelikka xolis baho berishga imkon yaratadi. So’ngi yillarda mamlakatda islom bilimlarini egallashga bo’lgan talab darajasi oshdi. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2017 yil 7 fevral sanasidagi “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli va 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5416-sonli farmonlari hamda 2019 yil 4 sentyabrdagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4436-son qarori islom dini ta’limotini tadqiq qilish borasida yanada yangi imkoniyatlar ochilishini belgilab bergan asosiy dasturilamal vazifasini o’tamoqda.

## TADQIQOTDA QO’LLANILGAN USLUBLAR

Maqolani yozish jarayonida ilmiy tavsiflash, tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil va statistika kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## ILMIY MOHIYATI

Risolat tarixi hech shubhasizki, Payg’ambar Muhammad (s.a.v.)ning Makka va Madina shaharlarida kechgan hayoti va faoliyati bilan uzviy bog’liqdir. Payg’ambar (s.a.v.) borasidagi ma’lumotlar turli soha vakillari: mufassir, muhaddis faqih va tarixchilar tomonidan o’z yo’nalishi bo’yicha jamlangandir. Siyrat ilmi bo’yicha ilmiy izlanishlar asrlar davomida oz fursatga bo’lsa ham to’xtab qolgani yo’q. XX asrga kelib siyrat ilmida nom qozongan insonlar orasida Doktor Muhammad Said Ramazon Butiy, Safiyurrahmon

Muborakfuriy, qozi Muhammad Mansurfuriy kabilarning nomlari alohida ahamiyatga ega [Абдул Азим Зиёуддин, 2007:56].

Ayni vaqtda mamlakatimiz islomshunos va tarixchi olimlari ham o'z ilmiy izlanishlari bilan mazkur soha rivojida hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, islom tarixi va islom ilmalari bo'yicha atoqli olimlardan A.Hasanov, U.Uvatov, I.Usmonov, A.Abdullayev, B.Uzoqov, B.Hasanov va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayotining u yoki bu qismi, tarixiy, aqidaviy va boshqa sohalar bo'yicha o'rganilgan.

Mazkur izlanishning **ilmiy mohiyati**ni, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda siyratning asosiy qismi bo'lmish risolat voqyeligini tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy ahamiyatini yoritilib berish tashkil etadi.

## TAHLIL

Har bir sohaning o'ziga xos atamalar lug'ati bo'lishi tabiiy va sohaga oid so'z yoki jumlaning oddiy aholi istemolida bo'lgan ma'nodan farqlanishi, balki tubdan farq qilishi ajablanarli emas. Mazkur maqola mavzusi doirasida o'rganilayotgan ishda ham "risolat" so'zi ayni vaziyatga misol bo'ladi. Shu sababli, bu so'zning izohiga alohida e'tibor qaratish lozim deb topildi.

Dastavval ushbu so'zning lug'aviy jihatdan ma'nosi o'rganilsa, "رَسِلَ" – (rosila) masdaridan olingan, "رِسَالَة" (risolat) so'zi Misr arab respublikasida 2010 yilda beshinchi bor qayta chop etilgan "Mo'jam al-Vasit" nomli, katta hajmli arab tilining izohli, lug'atida bir necha ma'nolarni anglatishi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan:

1. Maktub, xat;
2. Bir mavzudagi kichikroq masalalarni o'z ichiga olgan ilmiy kitobcha;
3. Topshiriq, vazifa;
4. Allohning tomonidan vahiy qilingan buyruq va qaytariqlarini odamlarga yetkazish.

Yuoqridagi ma'nolardan anglashilgan tub ichki mohiyat, risolat zamonaviy g'arbda qo'llaniladigan "missiya" so'zi anglatuvchi ma'noga yaqindir. Unga ko'ra, biror bir xalq yoki millat orasida ma'mum bir ta'limotni targ'ib qilish va uni o'sha odamlar orasida ommalashtirishdek murakkab bir topshiriqdir [Sariçam, 2005:68].

Risolat so'zi bevosita islom dinining bosh manbasi hisoblanmish Qur'oni karim orqali tadqiq etilganda quyidagi holat ma'lum bo'ladi. Qur'oni karimda "risolat" kalimasi o'n o'rinda, xususan: Moida (67 - oyat), An'om (124 - oyat), A'rof (62, 68,79,93,144 - oyatlari), Ahzob (39 - oyat), Jin (23, 28 - oyatlar) suralarida keltirilgan. Agar tarjima va tafsir kitoblariga bevosita tayanilsa, matn mazmunidan kelib chiqib, risolatni bir necha hil ma'noda tarjima va tafsir qilingan.

Xususan, Moida surasining 67 oyati Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri hilol" asarida: "Ey, Payg'ambar! Senga Robbingdan nozil bo'lgan narsani yetkaz. Agar shunday qilmasang, Uning elchiligini yetkazmagan bo'lasan. Alloh seni odamlardan saqlar. Albatta, Alloh kofir qavmlarni hidoyat qilmas" tarzida o'zbek tiliga o'girilgan [ShayhMuhammad Sodiq, 2008:2-jild].

Arab tilidagi tafsirlarda risolatni Alloh tomonidan Muhammad (s.a.v.)ga nozil qilingan - aqida, amal, pand-nasihat, shar'iy hukmlarni o'z ichiga olgan oyatlar nazarda tutilgani va payg'ambar ayni oyatlarni odamlarga yetkazishi, ular bilan jamiyatdagi katta-yu kichikni islomga chaqirishi va oxirat kuni haqida ogohlantirib, yaxshilik qiluvchilarga xushxabarni yetkazishi lozim bo'lgan "missiya" sifatida talqin qilingan.

Shuningdek, Ahzob surasining 39 oyatida ham risolat so'zini "Tafsiri hilol" muallifi: "Ular Allohning elchiligini yetkazadigan, Undangina qo'rqadigan, Allohdan boshqa hech kimdan qo'rqmaydigan zotlardir", deb tarjima qilgan. Ushbu oyatni o'rganish asnosida Qur'oni karimning ma'nolarining o'zbek tiliga tarjima va tafsirlari borasida mashhur bo'lgan muftiy Usmonhon Alimovning "Tafsiri Irfon" [Alimov, 2013:349], shayh Abdulaziz Mansurning "Qur'oni karimning ma'nolari tarjima va tafsiri" [Abdulaziz Mansur, 2018:618] hamda Aloviddin Mansurning "Qur'oni karim" [Alovuddin Mansur, 2001:573] nomli kitoblarida ham yuqoridagi oyatlarda kelgan risolat so'zi elchilik ma'nosida tarjima qilingani ayon bo'ldi.

Shu o'rinda Qur'oni karimning g'arb xalqlari tillariga tarjimalari ustida ham tadqiqot olib borildi. Bunda asosan, bizning ilmiy doiralarga yaqindan tanishligi sababli rus va xalqaro miqyosda ahamiyatga egaligi bois ingliz tilidagi tarjimalarga e'tibor qaratildi. Qur'oni karimni rus tiliga tarjima qilib, uni ilk bor ommaviy tarzda nashr etishga muvaffaq bo'lgan G.Sablukov [Sablukov, 2012:376] oyatda kelgan risolat so'zini tegishlicha "посольства" shaklida rus tiliga o'girgan.

"Для тех, которые выполняли посольства Божии, боялись Его и не боялись никого, кроме Бога. Бог есть надежнейший защитник" [Sablukov, 2012:270].

Nisbatan zamonaviy tadqiqotchilar qatoriga kiruvchi M.Osmanov [Osmaov, 2016:516] va E.Kulievlar [Kuliyev, 2007:688] tomonidan amalga oshirilgan Qur'oni karimning rus tiliga tarjimalarida "послание" tarzida tarjima qilingan.

"для тех, которые сообщают послания Аллаха и страшатся Его ине страшатся никого, кроме Аллаха. Только Аллах предъявляет счет[за содеянное]" [Osmanov, 2016:278].

Moskvada nashr etilgan Rus tili lug'atida berilgan sharhga ko'ra "poslanie" biror kimsaga nisbatan yozma murojatni anglatsa, "посольство" so'zi amaliyotda elchi ma'nosida ham qo'llanilishligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, mazkur kalima ingliz sharqshunos olimi A.Arberry tomonidan amalga oshirilgan ingliz tiliga tarjimada esa bir hilda "message" tarzida tarjima qilingan.

"O Messenger, deliver that which has been sent down to thee from thy Lord; for if thou dost not, thou wilt not have delivered His Message" [Arberry, 1996:708].

"who were delivering the Messages of God, and were fearing Him, and fearing not any one except Him; and God suffices as a reckoner" [Arberry, 1996:248]. Ingliz tilidagi izohli lug'atlar ichida mashxur bo'lgan 1831 yildan boshlab chop etib kelinayotgan Merriam Webster lug'atida "message" so'zining xat-xabar ma'nosi bilan bir qatorda maxsus topshiriq – missiya ma'nosiga ham ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan [Merriam Webstr, 1982].

Qur'on oyatlarini o'rganish davom etilsa, risolat so'zi to'g'ridan-to'g'ri payg'ambarlik ma'nosida qo'llangandigiga ham guvoh bo'lish mumkin.

An'om surasining 124 oyatida shunday deyiladi: "Agar ularga oyat kelsa, Allohning Payg'ambarlariga berilgan narsaga o'xshash narsa bizga ham berilmaguncha zinhor iymon keltirmasmiz, derlar. O'z Payg'ambarligini qaerga qo'yishni Allohning O'zi yaxshi biladir" [Abdulaziz Mansur, 2018:143]. Tafsiri Qurtubiyga ko'ra, mazkur oyatning nozil bo'lishiga Makkaning o'zsha davrdagi ikki zabardast zodagoni – Valid ibn Mug'iyra va Abu Jahlning aytgan so'zlari sabab bo'lgan. Zero, Makkaning eng badavlat kishilaridan va islomga ashaddiy qarshilik ko'rsatgan kimsalardan bo'lmish Valid ibn Mug'iyra: "Agar Payg'ambarlik haq bo'lsa, sendan ko'ra men unga munosibroqman, chunki mening sendan ko'ra yoshim ham katta, molu dunyoim ham ko'p", degan [Qurtubiy, 2006:3 juz].

A'rof surasi tarkibidagi to'rtta oyatda esa risolat so'zi Qur'onda payg'ambarlar qatorida sanalgan Nuh (a.s.), Hud (a.s.), Solih (a.s.), Shuayb (a.s.)lar tilidan o'z qavmiga qarata aytgan nasihat nutqi ichida yana bir boshqa, ammo yuqoridagiga yaqin ma'noda keltiriladi va "Robbining bandalarga yuborgani" tarzida tarjima qilinadi. Xususan, Nuh (a.s.)ning: "Sizlarga Robbimning yuborganlarini yetkazaman, nasihat qilaman va Alloh tomonidan siz bilmagan narsani bilaman" [Abdulaziz Mansur, 2018:151], deb aytgan so'zlari ma'nosi deyarli o'zgarmagan holatda qolgan payg'ambarlar tiladan ham takrorlangan. Bu oyatlarda Robbining o'z bandalariga ubu dunyoda baxt-saodat topishligi va oxirat hayotida mangu farog'atga erishish yo'lida amal qilishi lozim bo'lgan ko'rsatmalari, yuborganlari – ya'niki, buyruq va qaytariqlar, hamda hayotiy hukmlar majmuasi sifatida qo'llaniladi.

Ammo, bu oyatlar rus va ingliz tilidagi tarjimalarda bir hil tarzda "послание" va "massage" shaklda, ya'ni avvalgi oyatlardagi kabi ifodalangan.

"Я доставляю к вам послания Господа моего и даю вам добрый совет. Я знаю [благодаря откровению] то, чего не знаете вы[Osmanov, 2016:301].

"I deliver to you the Messages of my Lord, and I advise you sincerely; for I know from God that you know not" [Arberry, 1996:509].

Risolat so'zini Qur'on oyatlarida qo'llanilishi asosida tadqiqot davom ettirlsa, A'rof surasining 144 oyatida esa risolat so'zi nihoyat to'g'rida-to'g'ri payg'ambar ma'nosida istifoda etilganiga guvoh bo'linadi.

"U Zot: "Ey Muso, Men seni odamlar ichidan Payg'ambarligim va gaplashishim ila tanlab oldim. Bas, senga bergan narsamni ol va shukr qilguvchilardan bo'l!", dedi" [Abdulaziz Mansur, 2018:168].

Mazkur oyatdan anglashiladiki, Yaratgan Robbi Muso (a.s.)ga uni odamlar orasidan tanlab olgani va faqat u bilan so'zlashgani haqida xabar berilmoqda. Ko'rinib turibdiki oyat so'ngida payg'ambarlikni bajo keltirish yo'lida Muso (a.s.)ga ko'rsatma berish bilan yakunlanmoqda.

Yuqoridagi oyatlardan ko'rinadiki, risolat so'zi bu oyatlarda oddiy bir elchilik ma'nosidan ko'ra yuqori bir maqomni, bandalar orasida havas qilinadigan, insonlar o'zlari mehnat qilib erasha olmaydigan hamda faqatgina ulug' qudrat sohibi bo'lmish Robbi tomonidan va asosiysi uning O'zi istagan odamga beradigan daraja ekanligi anglashiladi [Dr. Shevket, 2018:63].

Shu o'rinda yana bir nuqtaga e'tibo bermoqlik lozim bo'ladi. biz tilimizda qo'llaydigan payg'ambar atamasi arab tiladi "nubuvvat" va "rosul" so'zlari bilan ifodalanadi. Ehtimol bu ikki so'zning ma'nosi bir biriga juda yaqin bo'lganligi sababli ularni alohida sharhlashga doim ham ehtiyoj sezilmas. Ammo, bu o'rinda kichik bir izoh zarur bo'ladi. boisi, bu ikki kalima islom shariatida bir biridan aniq farqlarga ega. Nubuvvat lug'atda "naba" – "muhim xabarni yetkazish" va "nubu" – "yuqorilash" kabi ma'nolarni anglatadi. Shu jihatdan, nabiy – Allohdan muhim xabar olgan, martabasi yuksalgan inson bo'ladi. Ammo, ahamiyatlisi uning o'ziga alohida bir shariat qoidalari majmuasi berilmagan bo'lib, uning asosiy vazifachi o'zidan avval joriy bo'lgan tartib-intizomni joyiga qo'yishdan iborat bo'ladi. Bu borada Lut, Ismoil, Ishoq, Ya'qub va uning alodalaridan o'tgan ko'plab nabiylar Ibrohim (a.s.)ga, kuyingi davrda esa Xorun (a.s.) bevosita o'z birodari Muso (a.s.)ga, Zakariyo (a.s.)ning o'g'li Yahyo (a.s.) esa o'z zamondoashi va xolasining o'g'li bo'lgan Iso ibn Maryam (a.s.)ga tushurilgan ta'limotga amal qilish uchun odamlarni chorlagani misol bo'ladi. Yuqorida keltirildiki, arab

tilida “Risolat” so’zi bir necha ma’nolarni, xususan biror narsani lutf ila yubormoq kabi ma’nolarni o’zida ifoda etadi. Arablarda birov tomonidan yuborilgan maktubni ham “risola”, biror masalada yuborilgan elchini esa “rosul” deyilishi ma’lum va mashhur. Shunga ko’ra, Alloh tomonidan bandalarga yuborilgan muayyan diniy ta’limotlar to’plami “risolat” deyilgani holda, uni odamlarga yetkazgan shaxsga nisbatan esa elchi – “rosul” deb nomlangan. Rosullarga esa o’z navbatida alohida qoidalar majmuasi bo’lgan shariatlar nozil qilingan. Zero, Muso va Iso (a.s.)larning izdoshlar hamda Ibrohim diniga amal qilishni istagan haniflarning va Muhammad (s.a.v.)ga imon keltirganlarning hayot tarzlari bunga yaqqol misoldir [Ibragimova, 2019:38].

Muhammad payg’ambar (s.a.v.)ning risolati ham yuqoridagi barcha ma’nolarni o’z ichiga qamrab olar edi. Ayni vaqtda uning mohiyati butkul islohatdan iborat edi. Ya’niki, unda faqatgina diniy masalalargina bo’lmay, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalari: siyosiy, idoraviy, huquqiy va madaniy yangilanish muammosi ko’tarilgan edi. Asosiy, e’tiborli, jihati esa ularning barchasi “tavhid” – yakkaxudolik g’oyasiga asoslangan edi. Qur’oni karimning ilk oyatlari mohiyatan, shirkka qarshi butun olamlarni yaratgan yolg’iz Yaratuvchiga e’tiqod qilish chaqirig’i bilan, shirkka sababchi, avvalgi barcha tartib-qoidalarni bekor qildi [Kushbayev, 2018:5].

Agar Makka davrida nozil bo’lgan oyatlarga qaralsa, ularda birdan bajariluvchi, olamshumul ishlarga da’vo qilinmaydi, ammo eng oddiy misollar vositasida butun islom ta’limoti mohiyatini ochib beradi. Bunda eng avvalgi misol bu payg’ambar Muhammad (s.a.v.) ning o’zi edi. Qur’oni karimga ko’ra u ham oddiy inson ekanligi, o’z jamiyatining bir a’zosi ekanli ta’kidlanadi.

(Ey Muhammad! ularga) “Darhaqiqat, men ham sizlar kabi bir bashardirman. (Faqat) menga, ilohingiz yakkayu-yagona Iloh ekani haqida vahiy etilmoqda”, - deb ayt”, - oyati yuqoridagi fikrga mos keladi [Abdulaziz Mansur, 2018:304.]. Shuningdek, Qur’on oyatlarini o’rganishda davom etilsa, payg’ambarning aslida ojiz bir banda ekanligi, uning barcha ishlarda qo’llab turuvchi zot esa barcha ishga qodir Alloh ekanligi namoyon bo’lib boradi. Hamda insonlarni atrof-olam va undagi ma’jizali maxluqotlar haqida fikr yuritishga undaladi. Chunonchi, G’oshiya surasida: “Axir, ular tuyalaarga qarab, qanday yaratilganiga (17) osmonlarning qanday ko’tarib qo’yilganiga (18) tog’larning qanday tiklanganiga (19) va yerning qanday tekislab – yoyib qo’yilganiga boqmaydilarmi?!” [Abdulaziz Mansur, 2018:592.] deb murojaat qilingan bo’lsa, Zariyat surasida esa: “O’zlarinigzda ham. Axir, (ularni) ko’rmaysizlarmi” [Abdulaziz Mansur, 2018:521.], - deb fikrlashga chog’langan inson hayolini esa bevosita o’z vujudi-jismiga qaratadi.

Payg’ambarlik risolatini keying bosqichida, ya’niki insonlarni atrof-olam va o’z ustida tafakkur qilib ko’rgach, kelgusida qanday harakat qilsihi masalasi o’rtaga chiqadi. Bu esa o’z davri uchun va e’tirof etish joizki, hanuzgacha muhim bo’lib kelayotgan muammo – insonlarni qanday yashashi lozimligi, baayni bu dunyoda qanday hayot kechirish haqidagi mantiqiy savollarga javob bo’ldi. Qu’ronga ko’ra har bir inson o’z hatti-harakati uchun mas’uldir.

“Bas, endi (o’sha kuni) kimning tarozida tortilgan narsalari (yaxshi amallari) og’ir kelsa (6), ana o’sha qoniqarli maishatda (jannatda) bo’lur (7). Ammo, kimning tarozida tortilgn narsalari (yaxshi amallari) yengil kelsa (8), uning joyi (do’zaxdagi) “jarlik”dir (9)” [Abdulaziz Mansur, 2018:600.], - deb ta’kidlangan. Bu esa odamlarni kim bo’lishidan qat’iynazar qilayotgan amallariga nazar solishga chaqiradi. Agar Makka shahrining islom dini arafasidagi ijtimoiy holatiga nazar solinsa bu muhim va ayni vaqtda jiddiy masala ekanlgini anglash qiyin emas [Kushbayev, 2019:467].

Islom chaqirig’ining eng og’ir kechgan jabhasi, bu jamiyatdagi boylar va kambag’allar o’rtasidagi kurash edi. Sababi, Makkadagi islomgacha davrda savdoning taraqqiy etishi oqibatida odamlar o’rtasida ko’p masalalar moddiyat bilan o’lchanadigan vaziyat edi. Ammo, tarix manbalarida bunday holat odamlarni turmush tarzini yanada og’irlashtirib yuborgan sabablardan biriga aylangani aytiladi. Ayni vaqtda, jamiyatda chuqur bir islohatga ham ehtiyoj sezilgan edi. Islom risolati esa esa odamlarni yakkahudolik g’oyasiga chaqirish barobarida ayni islohatni amalga oshiruvchi vazifasini ham o’tadi [Dr. Abroo, 2016].

Islom payg’ambari Muhammad (s.a.v.)ning bosh maqsadi shubhasiz, yakkahudolik ta’limoti asosida, axloqiy va ijtimoiy adolatga tayangan jamiyat barpo etish qilish bo’lgan. Uning faoliyati kuzatilsa iqtisodiy muammolarni yechishda huquqiy jihatdan ko’ra axloqiy normalarga ko’proq asoslanganiga guvoh bo’lish mumkin. Qur’onda esa boylarni kambag’al qatlamga nisbatan himmatli bo’lish va ularni taomlantirish masalasiga takror-takror qaytiladi. Xususan, Maun surasida mazkur mavzuga o’ziga xos tarzda yondashiladi va dinni inkor qiluvchi – kofir odam siymosi, kambag’allarga qo’pol tarzda munosabatda bo’luvchi inson bilan bir qatorda zikr etilib: “Dinni inkor etadigan kimsani ko’rasanmi; bas, u yetimni jerkiydi; va miskinga taom berishga targ’ib etmaydigan kimsadir” [Abdulaziz Mansur, 2018:602], deb ta’riflanadi [Ahmad Hasan, 1971:213].

Oyatlarning nozil bo’lish ketma-ketligida ham tabiiyki, o’ziga xos mantiqiylik bor. Ya’ni, avvalo odamlarni e’tiqod borasida bir manzilga jamlangach, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida tenglikka qarab targ’ib etib borildi. Ammo, islom risolatining ham

o’z tartib va qoidlari bo’lib, uning asosida kishilar bir biridan farq qilishi mumkin edi. Bunda yagona o’lcham insonlarning yagona Robbisi Alloh oldidagi mavqeyi bilangina o’lchanishi mumkin edi. “Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog’ingiz taqvodorrog’ingizdur (13)” [Abdulaziz Mansur, 2018:515], - deb xabar qilinishi, azaldan o’zlarining o’tgan ajdodlari va qabilasining shoni-shuhrati bilan maqtanishni yaxshi ko’radigan hamda buni odat qilgan arab jamiyati uchun alohida bir ko’rsatma singari ahamiyat kasb etdi [Margoliouth, 1905:249].

Islom risolatining jamiyatdagi eng sezilarli islohati shubhasiz bu ayollar huquqi masalasida bo’ldi. Sababi, islom risolatiga qadar hech bir din yoki falsafiy ta’limot ayollarning haq va huquqlarini islom dinichalik yuksak baholamagn edi [19; – s. 158]. Qur’oni karimda alohida bir suraning “Ayollar” deb nomlarnishi va erkak va ayolning yaratilish ildizi bir ekanligini ta’kidlanishi o’rta asrlarda noyob bir hodisa edi. “Ey odamlar! Sizlarni bir jon (Odam)dan yaratgan va undan jufti (Havvo)ni yaratgan hamda ikkisidan ko’p erkak va ayollarni taratgan Robbingizdan qo’rqingiz! Shuningdek, o’rtalaringizdagi o’zaro muomalada nomi keltiriluvchi Allohdan va qarindoshlar (aloqasini uzish)dan qo’rqingiz! Albatta, Alloh sizlarni kuzatib turguvchidir (1)” [Abdulaziz Mansur, 2018:77]**.** Mazkur oyatda anglashilib turibdiki, jamiyatda erkak va ayolning asliy huquqlari teng bo’lib, ularni kelib chiqishi birligi buning asosidir.

Ayni shu maslada taqqoslash uchun o’rta asrlar g’arbiy yevropada yaratilgan tarixiy xujjatlar o’rganilsa, ayollarning mavqeyi juda past va ularga nisbatan jamiyatning munosabati ham o’ta salbiy ekanligi oydinlashadi. Bundan tashqari ayollarga nisbatan nafaqat gender notengligi balki, mehnat munosabatlarida ham diskriminatsiyaga yo’l qo’yilar edi. Chunonchi tog’-kon qazish ishlarida faoliyat yuritgan bir ayol, xuddi shu ishni qilgan boshqa bir erkak kishi olgan haqning teng yarmini olar edi [www.medievalgender.org.uk].

Islom risolatining avvalgi davri g’oyaviy kurashlar ham boy bo’ldi. Buning asosiy sababi Makkalik mushriklar risolatning ilk kunlaridanoq Muhammad payg’ambar (s.a.v.)ning Allohning rosuli ekanligini tan olmadilar [25:79]. Boz ustiga esa zodagonlardan iborat Quraysh rahnamolari uning shaxsiyatiga qarshi turli bo’xtonlarni yog’dira boshladilar. Bu borada unga nisbatan sehrgar, kohin, shoir va majnun kabi sifatlerni bergani ma’lum va mshaxurdir [26:142]. Ammo, Qur’oni karim mazkur masalalarga alohida-alohida oyatlarda raddiaylar keltirildi. Aksincha bunday tuxmatlarni amalga oshirganlarning o’zlarini ayblari qator qilib ochib tashlandi. “Bas, (Ey Muhammad!) (Insonlarga) eslatma beravering! Chunki siz Robbingizni ne’mati sababli kohin ham, majnun ham emasdirsi (29)” [Abdulaziz Mansur, 2018:524], - kelgan oyatda yoki

“Ular: “”Biz hali bir majnun shoirni deb ilohlarimizni tark etar ekanmizni?” der edilar (36)**”** [Abdulaziz Mansur, 2018:446], - deb mushriklarning o’z tillaridan savol ostiga olingan so’zlar bilan yoki

“U biror shoirning so’zi emasdir. Sizlar (ushbu Qur’onga) kamdan kam imon keltirasizlar (41)” [Abdulaziz Mansur, 2018:447], – deb keltirilgan oyatlarning barchasida Payg’ambarning na shoir, na sehrgar, na majnun emas ekanligi ta’kidlangan. G’oyaviy jihatdan hech bir dunyoviy ilmga ega bo’lmagan kishining olamshumul ishlar haqida xabar berishi o’z davri odamlarini ajablantirishi haqida so’z borar ekan, uning ortida qudratli Zotning turgani haqida qat’iy g’oya ilgari suriladi. Zero, bu borada A’rof surasining ikki oyatida ketma-ket Muhammad payg’ambar (s.a.v.)ni ummiy ekanligi ta’kidi keladi.

“Bas, Allohga va Uning rosuliga imon keltiringiz! U (rosuli) Allohga va uning Kalimalari (muqaddas kitoblar)ga imon keltiradigan ummiy payg’ambardir. Unga ergashingiz, toki hidoyat topgaysiz (158)” [Abdulaziz Mansur, 2018:170], - ummiylik ayb sifatida emas, balki bir fazl sifatida keltirilmoqda.

## XULOSA

Payg’ambarlik risolasi bir voqiea yoki hodisa sifatida qaralishidan ko’ra kengroq tushunchadir. Unda odamlarni diniy aqidasi asrlar osha shakllangan politeistik dunyoqarashning turli-tuman shakllarini inkor etgan holda odamlar uchun yangi bir aqida – Yakkahudolikka chaqirish orqali jamiyatni tubdan yangilanishi jarayonidir. Boisi, Muhammad payg’ambar (s.a.v.) faqatgina diniy soha yetakchisi bo’lish bilangina cheklanib qolmadi. Aksincha, jamiyatda g’oyaviy, iqtisodiy, harbiy va siyosiy yetakchi sifatida namoyon bo’ldi. Jamiyatda mavjud barcha qatlamlar: boylar, kambag’allar, qullar va Quraysh zodagonlari o’rtasida o’zaro insoniy tenglik g’oyasi – barcha Allohning bandasi ekanligi asosida birdamlik ta’minlandi [15:148]. Bu borada Isro surasida: “Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik (70)”, deb murojaat qilinishi mazkur masalada judda kata ahamiyat kasb etadi [Abdulaziz Mansur, 2018:289]. Oyatdan esa anglashilgan ilk ma’no insonlarning ijtimoiy ahvolidan, tanasining rangi, tili va boshqa farqlaridan qat’iynazar inson bo’lsa bas, mukarram va aziz ekanligidir.

Xotin-qizlar masalasidagi islomning qat’iy mavqeyi ham vaqt o’tishi bilan risolatning ahamiyatini yanada oshishiga xizmat qildi.

Xulosa sifatida keltirish mumkinki, bugungi zamonamizda fan va texnika yuksak darajada hamda jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa fan olamida bir vaqtni o’zida o’zga tilli yoki e’tiqoddagi insonlarning ham ilmiy ijod namunalaridan foydalanishga imkon yaratmoqda. Islomni anglash va uni qadrini bilish uchun o’zgalarning holidan boxabar bo’lish ham foydadan xoli emas ekan.

**ADABIYOTLAR:**

1. Абдул Азим Зиёуддин (2007) Сиз пайғамбарни кўрганмисиз. Т.: “Тошкент ислом университети” нашриё-мабаа бирлашмаси. – Б. 78.
2. Al-mu’jam al-vasit. Al-tob’atu al-xomisatu. “Munqohatun”. 2010. Maktabat al-shuruq al-davliya. Jumhuriyati Misr al-A’robiya
3. Ibrahim Sariçam (2005) İlk dönem islam tarihi. Anadolu ünversitesi. Eskişehir.– S. 301.
4. Mus’hafi sharif. Madina, 1403 (hijriy). – B. 604.
5. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2017) Tafsiri hilol, 2-juz. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa AK, 2008. – B. 608. ISBN: 978-9943-41-56-9-0
6. Алимов У. (2013) Тафсири Ирфон. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. 3-6 жузлар. (Оли Имрон, Нисо суралари). – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа АЖ бош таҳририяти, – В. 349.
7. Абдулазиз Мансур (2018) Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (қайта ишланган 4-нашри) / Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, – В. 618.
8. Алоуддин Мансур (2001) Қуръони каримнинг ўзбекча изоҳли таржимаси. Бишкек. – В. 573.
9. Aripova, Zukhra (2020) “The life and status of women in society during the Mamluk period,” The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 3. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/3
10. Aripova, Zukhra (2019) “Mamluk sultans in Egypt and Abbasid caliphs in Cairo”. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (78), 201-205. https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2019.10.78.36
11. Саблуков. Г.С., (2012) М.: “Белый город”, – С. 376. ISBN: 978-5-7793-2368-0
12. Dono, K., (2020). “Features of information exchange aspects in the information society”. Ijtimoiy fanlar, 2(3) fanlar. (In Uzb.)
13. Османов. М-Н., (2016) Коран: академический перевод и комментарий. М.: “Диля”, – С. 516. ISBN: 978-5-88503-929-1
14. Кулиев. Э.Р., (2007) Коран (перевод смыслов). Чувашский гос. унв. им. И.Н.Улянова. издетулский дом “Умма”, – С. 688.
15. Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд., доп. – М.: Большая рос. энцикл., 2002. – 709 с. – Терминол. указ.: с. 627-650. - Указ. языков мира: с. 651-660. - Аннот. имен. указ.: с. 684-707.
16. Arberry. A.J., (196) The Koran interpreted: a translation. Publisher: Touchstone. – P. 708. ISBN-10: 0684825074
17. Merriam-Webster dictionary. Springfield (Massachusetts): G. & C. Merriam Co. 1982. www.merriam-webster.com
18. Al-Qurtubiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Andalusiy (2006) “Al-Jome li’ahkam al-Qur’an” (Tafsiri Qurtubiy). Muhaqqiq: Abdulloh ibn Abdulmuhsin al-Turkiy. Mu’assasatu al-risala.
19. Dr. Şevket Kotan (2018) Hz. Peygamber’in siretenin kaynağı olarak Kur’an//Siyer dersleri – Mekke dönemi. Editör: Dr. İdris Söylemez. – Malatya Büyükşehir Belediyesi Yayınları. Yayın No: 35. –S. 239. ISBN: 978-605-82490-6-6.
20. Doktor Tavfiq Birru (1986) At-Tarix al-siyasiyyati va al-muhazoriyyati lisodri al-islam va al-xilafati al-ummaviyyati. Manshuroti jami’ati Halab. – S. 271.
21. Kushbayev, Farrukh (2018) “The social, economic and religious life of the city of Mecca before Islam,” The Light of Islam: Vol. 2018 : Iss. 4 , Article 1. 3-8.
22. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2018/iss4/1
23. Kushbayev, Farrukh (2019) “The peculiarities of the Meccan period in the history of the spread of Islam”. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (77), 466-470.
24. Dr. Abroo Aman Andrabi (2016) Human rights in Islamic perspective. International Journal of Humanities and Social Science Research. vol 2 (5); pp. 23, 57-78. ISSN: 2455-2070
25. Ahmad Hasan (1971) Social Justice in Islam. Islamic studies vol. 10 (3), pp. 209-219 (11 pages), Islamic Research Institute, International Isla mic University, Islamabad.
26. Margoliouth, D.S., (1905) Mohammed and the rise of islam. (3d ed.). New York. The Knickerbocker press. - P. 590.
27. Mukhamedov Nematullo (2020) “Activities of hadith scholars (muhaddis) of shash oasis in scientific centers of the region”. The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 11. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/11.
28. Ibn Hishām, ʿAbd al-Malik (1967) The Life of Muhammad. Translated from the Arabic and edited by Alfred Guillaume. Lahore, 1967. Reconstruction and translation of the earliest biography of Muḥammad. Reprint of the 1955 edition.
29. Arnold Th., (1935) The preaching of islam. 3-d edition. Reynold A. – London, 1935. - p. 433.
30. Ibn Isḥāq, Muḥammad (1955) The Life of Muḥammad: A Translation of Ibn Isḥāq‘s Sīrat Rasūl Allāh. Translated with introduction and notes by Alfred Guillaume. London and Karachi.
31. Muir, William (1861) The Life of Mahomet and History of Islam to the Era of the Hegira: With Introductory Chapters On the Original Sources for the Biography of Mahomet and On the Pre-Islamite History of Arabia, Volume 4. , London. Smith, Elder and Co. - P. 346.
32. Fuzailova, Gavhar (2020) “Eastern thinkers on the pedagogical mastery,” The Light of Islam: Vol. 2020: Iss. 2, Article 19. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/19
33. Glubb, John Bagot (1970) The Life and Times of Muḥammad. London and New York. – P. 318.
34. www.medievalgender.org.uk
35. www.quran7m.com

**REFERENCES:**

1. Abdul Azim Ziyuddin (2007)Siz Payg’ambarni ko’rganmisiz. T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. – S. 78. (In Uzb.)

2. Āl-mu'jam al-wasīţ. Al-Ţob'at al-khāmisah. "Munaqqoha". 2010. Maktabati ash-shuruq ad-duwaliyah. Jumhuriyati Miṣr al-A'robiyah. (In Arab).
3. Ibrahim Sarijam (2005) Ilk donem islam tarihi. Anadolu unversitesi. Eskishehir. – S. 301. (In Turk.)
4. Mus'hafi sharif. Madina, 1403 (hijriy). – S. 604. (In Arab.)
5. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2017) Tafsiri hilol, 2-juz. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa AK, 2008. – S. 608. ISBN: 978-9943-41-56-9-0
6. Alimov U., (2013) Tafsiri Irfon. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. 3-6 juzlar.– T.: "Sharq" nashriyot –matbaa AJ bosh tahririyati. – S. 349.(In Uzb.)
7. Abdulaziz Mansur (2018) Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri (qayta ishlangan 4-nashri) / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. – S. 618. (In Uzb.)
8. Alouddin Mansur (2001) Qur'oni karimning o'zbekcha izohli tarjimasi. Bishkek. – S. 573. (In Uzb.)
9. Aripova, Zukhra (2020) "The life and status of women in society during the Mamluk period," The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 3. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/3
10. Aripova, Zukhra (2019). Mamluk sultans in Egypt and Abbasid caliphs in Cairo. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (78), 201-205. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-78-36 Doi:https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2019.10.78.36
11. Sablukov, G.S., (2012) M.: "Beliy gorod", – S. 376. ISBN: 978-5-7793-2368-0 (In Russ.)
12. Dono, K. (2020). Features of information exchange aspects in the information society. Ijtimoiy fanlar, 2(3) fanlar. (In Uzb.)
13. Osmanov M-N., (2016) Koran: akademicheskiy pervod I kommentariy. M.: "Dilya". – S. 516. ISBN: 978-5-88503-929-1 (In Russ.)
14. Kuliyev. E. R., (2007) Koran (perevod smislov). Chuvashskiy Gos. Univ. im. I.N.Ulyanova. izdatelskiy dom "Umma". – S. 688.
15. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. / gl. Red. V.N. Yartseva. – 2- izd., dop. – M.: Bolshaya Ros. Entsik., 2002. – 709 s. – Terminol. ukaz.: s. 627-650. – ukaz. Yazykov mira: s. 651-660. – Annot. imen. ukaz.: s. 684-707. (In Russ.)
16. Arberry. A.J., (1996) The Koran interpreted: a translation. Publisher: Touchstone. – S. 708. ISBN-10: 0684825074 (In Eng.)
17. Merriam-Webster dictionary. Springfield (Massachusetts): G. & C. Merriam Co. 1982. www.merriam-webster.com (In Eng.)
18. Al-Qurţubiy, Abu A'bdulloh Muḥammad ibn Aḥmad ibn Abu Bakr al-Andalusiy (2006) "Al-Jāme' liaḥkām al-Qur'ān" (Tafsīr Al-Qurţubiy). Muḥaqqiq: A'bdulloh ibn A'bdulmuḥsin at-Turkiy. Mu'assasatu ar-risāla. (In Arab.)
19. Dr. Shevket Kotan (2018) Hz. Peygamber'in siretenin kaynag'i olarak Kur'an//Siyer dersleri – Mekke donemi. Editor: Dr. Idris So'ylemez. – Malatya Buyukshehir Belediyesi Yayinlari. Yayin No: 35. –S. 239. ISBN: 978-605-82490-6-6. (In Turk.)
20. Ziynatullayev, Ziyodilla (2020) "The social-political situation in Central Asia on the eve of the advent of Islam," The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 21. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/21
21. Duktūr Tawfīq Birru (1986) At-Tarīx as-siyāsiyyati wal-muḥāẓariyyati liṣadri al-islām wal-khilāfati al-ummaviyyati. Manshuroti jāmi'ati Halab. – S. 271. (In Arab.)
22. Kushbayev, Farrukh (2018) "The social, economic and religious life of the city of Mecca before islam," The Light of Islam: Vol. 2018 : Iss. 4 , Article 1. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2018/iss4/1
23. Kushbayev, F. K. (2019). The peculiarities of the Meccan period in the history of the spread of Islam. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (77), 466-470.
24. Dr. Abroo Aman Andrabi (2016) Human rights in Islamic perspective. International Journal of Humanities and Social Science Research. vol 2 (5); pp. 23, ISSN: 2455-2070. (In Eng.)
25. Ahmad Hasan (1971) Social Justice in Islam. Islamic studies vol. 10 (3), pp. 209-219 (11 pages). Islamic Research Institute, International Isla mic University, Islamabad. (In Eng.)
26. Margoliouth, D.S., (1905) Mohammed and the rise of islam. (3d ed.). New York. The Knickerbocker press. - P. 590. (In Eng.)
27. Mukhamedov Nematullo (2020) "Activities of hadith scholars (muhaddis) of shash oasis in scientific centers of the region". The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 11. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/11.
28. Ibn Hishām, ʿAbd al-Malik (1967) The Life of Muhammad. Translated from the Arabic and edited by Alfred Guillaume. Lahore, 1967. Reconstruction and translation of the earliest biography of Muḥammad. Reprint of the 1955 edition.
29. Arnold Th., (1935) The preaching of islam. 3-d edition. Reynold A. – London. - P. 433.
30. Ibn Isḥāq, Muḥammad (1955) The Life of Muḥammad: A Translation of Ibn Isḥāq's Sīrat Rasūl Allāh. Translated with introduction and notes by Alfred Guillaume. London and Karachi.
31. Muir, William (1861) The Life of Mahomet and History of Islam to the Era of the Hegira: With Introductory Chapters On the Original Sources for the Biography of Mahomet and On the Pre-Islamite History of Arabia, Volume 4. , London. Smith, Elder and Co. - P. 346.(in Eng.)
32. Fuzailova, Gavhar (2020) "Eastern thinkers on the pedagogical mastery," The Light of Islam: Vol. 2020: Iss. 2, Article 19. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/19
33. Glubb, John Bagot (1970) The Life and Times of Muḥammad. London and New York, 1970. – p. 318.
34. www.medievalgender.org.uk
35. www.quran7m.com